ANDIJON VILOYATI ASAKA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 15-noyabr | 356-1-17-Q/24 | Asaka tumani hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasi va O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida»gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi «Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 965-sonli qaroriga asosan tumanda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslarni, 2025-yilda ishga joylashtirish uchun ish joylarini eng kam miqdorini belgilash, qo‘shimcha ish joylari yaratish va ularni muhofaza qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-,25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN

Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq,

2025-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2-ilovaga muvofiq xodimlarning ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan 3631 nafarini tashkil etadigan 7 foiz miqdorida (268 ta), shu jumladan:

-o‘n to‘rt yoshgacha bolalari va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va ko‘p bolali ota-onalar uchun 9,5 foiz (60 kishi);

-ta’lim muassasalarini tamomlagan yoshlar uchun 7,4 foiz (78 kishi);

-muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun 1,0 foiz (3 kishi);

-nogironligi mavjud shaxslar uchun 3,0 foiz(100 kishi);

-tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan nafaqa yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun 1,4 foiz (7 kishi);

-jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar uchun 1,1 foiz (3 kishi);

-Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlangan shaxslar uchun 2,2 foiz (10 kishi);

-Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolarning boshqa toifalaridagilar uchun 2,1 foiz (7 kishi);

1.Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarilishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi kerak, shu jumladan:

yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va 14 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

ta’lim muassasalarlarini tugatgan yoshlar uchun–ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun–ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari nogironlar uchun–mehnat shartlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘lig‘ining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlar hisobga olingan holda) beradigan ish o‘rinlari;

tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan nafaqa yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun–maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlangan shaxslar uchun–ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

jazoni o‘tash muassasalaridan bo‘shatilgan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi choralar majburiy ko‘rilgan shaxslar, odam savdosidan jabrlanganlar uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun esa–maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari.

2.Ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar:

Muhandislar, iqtisodchilar, hisobchi, hisobchi-taftishchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, o‘qituvchi, tarozibon, elektr va avto aravacha haydovchisi, tashuvchi, farrosh, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EHM operator, yukchi, ishchi, bog‘bon, qorovul.

3.Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlariga. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlash;

Yil boshlangunga qadar o‘n kundan kechikmay ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi hajmida ish o‘rinlari band qilib qo‘yilishini va tayyor bo‘lishini ta’minlasin, ushbu to‘g‘risida tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga yil boshlangunga qadar axborot berilsin; ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini band qilib qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan taqvim yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlasin, bu to‘g‘rida tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tugagandan keyin o‘n ish kundan kechikmay axborot berish;

tashkilotlar har oyda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga yuqorida ko‘rsatilgan toifadagi shaxslarning ishga joylashtirilishi to‘g‘risida ushbu nizomga 5-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha axborot taqdim etishi; band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining tayyorligi to‘g‘risidagi axborotni tashkilot tomonidan taqdim etilmaganligiga ham amalda ularning tayyor emasligi ham Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organi qarorining bajarilmaganligi sifatida qarashi lozimligi qayd etilsin.

4.Ushbu qaror bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxslariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj,ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kami sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 21-bandiga muvofiq jarima solinadi.

5.O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-may kuni 3163-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘larlari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish to‘g‘risida”gi Nizom talablariga asosan Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda Ishga qabul qilgan korxona, tashkilotlarga tuman Kambag‘allikni qisqartirish va aholi

bandligiga ko‘maklashish bo‘limi nazoratiga asosan Nizomda belgilangan subsidiyalar ajratiladi.

6.Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman hokimligi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu ish o‘rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag‘larning bir qismini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan tuzilgan shartnoma asosida jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga egadir.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (X.Rashidov) bir hafta muddatda ushbu qarorni 1-bandida ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va ushbu qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

8.Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan kuchga kiritilsin.

9.Mazkur qaror “Asaka oqshomi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin va hokimlikning Veb saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2023-yil 29-dekabrdagi 148-1-17-Q/23 sonli qarori 2025-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.DJumaboyev va tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i X.Rashidov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **N.N.Mo‘minov**

Asaka tuman hokimining
2024-yil 15-noyabrdagi
356-1-17-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band etilgan ish joylarini nazorat qilish bo‘yicha tuman komissiyasining

T A R K I B I

Sh.Djumaboyev - Tuman hokimining o‘rinbosari, komissiya raisi

D.Aliyeva - Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a’zosi

X.Rashidov - Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a’zosi

U.Nazarov - Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari, ishchi guruhi a’zosi

A.Kimsanboyev - Inson ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari ishchi guruhi a’zosi

K.Norxo‘jayev - Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi DMI inspektori, ishchi guruhi a’zosi

MFY raislari - Hududlar bo‘yicha.

Asaka tuman hokimining
2024-yil 15-noyabrdagi
356-1-17-Q/24-son qaroriga
2-ilova

2025 yilda Asaka tumani bo'yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yilgan ish o'rinlari to'g'risida

MA'LUMOT

№	"Ijtimoiy muxofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro'yxati" (korxona va tashkilotlarning nomi)	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarining umumiy soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni			shu jumladan:									
				VM 965-sonli karorining 3-bob 7 bandiga muovfiq Nogironlar uchun 3% dan Ortik bo'lmasin SONI	VM 965-sonli karorining 3-bob 7 bandiga muovfiq Nogironlar uchun 10% dan Ortik bo'lmasin FOIZI	14 yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali ota-onalar uchun band qilinganish o'rinlari soni	Umumiy o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	VM 965-sonli karorining 3-bob 7 bandiga muovfiq Nogironlar uchun 3% dan kam bo'lmasin SONI	VM 965-sonli karorining 3-bob 7 bandiga muovfiq Nogironlar uchun 3% dan kam bo'lmasin FOIZI	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlar	Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik natijasida jabrlanganlar
1	6-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**27**	2	2	**7,4%**	1	1				**0,0%**				

2	7-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**27**	2	2	**7,4%**	1	1				**0,0%**				
3	8-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**41**	3	3	**7,3%**	1	1		1	1	**3,0%**				
4	9-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**42**	3	3	**7,1%**	1	1		1	1	**3,0%**				
5	11-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**42**	3	3	**7,1%**		2		1	1	**3,0%**				
6	12-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**42**	3	3	**7,1%**		2		1	1	**3,0%**				
7	13-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**42**	3	3	**7,1%**	1	1		1	1	**3,0%**				
8	14-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**42**	3	3	**7,1%**	2			1	1	**3,0%**				
9	15-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**42**	3	3	**7,1%**		2		1	1	**3,0%**				
10	16-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	2	2	**7,1%**		2				**0,0%**				
11	18-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	2	2	**7,1%**	1	1				**0,0%**				

12	19-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	2	2	**7,1%**	1	1				**0,0%**				
13	20-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**30**	2	2	**6,7%**		1		1	1	**3,3%**				
14	24-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	2	2	**7,1%**	1			1	1	**3,6%**				
15	26-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**32**	2	2	**6,3%**	1			1	1	**3,1%**				
16	27-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**31**	2	2	**6,5%**	1			1	1	**3,2%**				
17	28-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	2	2	**7,1%**		2				**0,0%**				
18	29-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	2	2	**7,1%**	1	1				**0,0%**				
19	30-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**42**	3	3	**7,1%**	2			1	1	**3,0%**				
20	31-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	3	3	**7,0%**		2		1	1	**3,0%**				
21	32-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**27**	2	2	**7,4%**		2				**0,0%**				

22	33-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	2	2	**7,1%**	1					**0,0%**	1			
23	35-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	2	2	**7,1%**		1				**0,0%**	1			
24	36-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	3	3	**7,0%**	2					**0,0%**			1	
25	39-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	2	2	**7,1%**	1	1				**0,0%**				
26	40-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	2	2	**7,1%**		1				**0,0%**	1			
27	41-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	2	2	**7,1%**		2				**0,0%**				
28	42-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	2	2	**7,1%**	1	1				**0,0%**				
29	44-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	2	2	**7,1%**	1	1				**0,0%**				
30	49-Maktabgacha ta'lim tashkiloti	**28**	2	2	**7,1%**	1	1				**0,0%**				
31	7-Umumta'lim maktabi	**30**	2	2	**6,7%**		1		1	1	**3,3%**				

32	8-Umumta'lim maktabi	**31**	2	2	**6,5%**		1		1	1	**3,2%**				
33	18-Umumta'lim maktabi	**32**	2	2	**6,3%**		1		1	1	**3,1%**				
34	20-Umumta'lim maktabi	**31**	2	2	**6,5%**	1			1	1	**3,2%**				
35	21-Umumta'lim maktabi	**33**	2	2	**6,1%**		1		1	1	**3,0%**				
36	22-Umumta'lim maktabi	**33**	2	2	**6,1%**		1		1	1	**3,0%**				
37	25-Umumta'lim maktabi	**32**	2	2	**6,3%**		1		1	1	**3,1%**				
38	34-Umumta'lim maktabi	**31**	2	2	**6,5%**		1		1	1	**3,2%**				
39	37-Umumta'lim maktabi	**33**	2	2	**6,1%**	1			1	1	**3,0%**				
40	39-Umumta'lim maktabi	**31**	2	2	**6,5%**				1	1	**3,2%**	1			
41	41-Umumta'lim maktabi	**31**	2	2	**6,5%**		1		1	1	**3,2%**				

42	42-Umumta'lim maktabi	**30**	2	2	**6,7%**		1		1	1	**3,3%**				
43	43-Umumta'lim maktabi	**28**	2	2	**7,1%**	1			1	1	**3,0%**				
44	46-Umumta'lim maktabi	**31**	2	2	**6,5%**	1			1	1	**3,2%**				
45	47-Umumta'lim maktabi	**30**	2	2	**6,7%**	1			1	1	**3,3%**				
46	49-Umumta'lim maktabi	**30**	2	2	**6,7%**		1		1	1	**3,3%**				
47	50-Umumta'lim maktabi	**31**	2	2	**6,5%**		1		1	1	**3,2%**				
48	51-Umumta'lim maktabi	**28**	2	2	**7,1%**		1		1	1	**3,6%**				
49	52-Umumta'lim maktabi	**31**	2	2	**6,5%**		1		1	1	**3,2%**				
50	53-Umumta'lim maktabi	**30**	2	2	**6,7%**		1		1	1	**3,3%**				
51	54-Umumta'lim maktabi	**30**	2	2	**6,7%**		1		1	1	**3,3%**				

52	55-Umumta'lim maktabi	**31**	2	2	**6,5%**	1			1	1	**3,2%**				
53	56-Umumta'lim maktabi	**33**	2	2	**6,1%**		1		1	1	**3,0%**				
54	57-Umumta'lim maktabi	**31**	2	2	**6,5%**	1			1	1	**3,2%**				
55	58-Umumta'lim maktabi (34-IDUMI)	**43**	3	3	**7,0%**		1		1	1	**3,0%**			1	
56	61-Umumta'lim maktabi	**33**	2	2	**6,1%**		1		1	1	**3,0%**				
57	22-BMSM	**33**	2	2	**6,1%**		1		1	1	**3,0%**				
58	29-BMSM	**28**	2	2	**7,1%**		1		1	1	**3,6%**				
59	Asaka tuman tibbiyot birlashmasi	**548**	41	41	**7,5%**	8	8	1	17	17	**3,1%**	1		2	4
60	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	**215**	17	17	**7,9%**	4		1	7	7	**3,3%**		2		3
61	Asaka Don maxsulotlari OAJ	**145**	12	12	**8,3%**	1		1	5	5	**3,4%**	1	1	2	1

62	"Asakatekstile" MCHJ	**887**	71	71	**8,0%**	18	19		30	30	**3,4%**	1	0	1	2
	JAMI	**3631**	**268**	**268**	**7,4%**	**60**	**78**	**3**	**100**	**100**	**3,0%**	**7**	**3**	**7**	**10**